https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

Komilov Ravshan Asatulla o'g'li

Navoiy davlat universiteti 1-kurs magistratura talabasi,

e-mail;komilovravshan@431gmail.com

tel;+ 998938580327

NAVOIY VILOYATIDA AGROSANOATNING RIVOJLANISHI

Annotatsiya

Navoiy viloyati O'zbekistonning markaziy qismida joylashgan. Yer resurslari va sug'oriladigan maydonlar ulushining yirikligi bilan ajralib turadi. So'nggi yillarda viloyatda agrotexnologiyalardan foydalanish kuchaydi.

Kalit so'zlar

Agrosanoat majmuasi, chorvachilik, innovatsiya, eksport, import, sanoat.

Аннотация

Навойская областъ расположена в централъной части Узбекистана. Характеризуется болъшой долей земелъных ресурсов и орошаемых площадей. В последние годы в регионе возросло применеие агротехники.

Ключевые слова

Агропромышленный комплекс, животноводство, инновации, экспорт, импорт, промышленностъ.

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

Abstract

Navoi region is located in the central part of Uzbekistan. It is characterized by a large share of land resources and irrigated areas. In recent years, the use of agrotechnology has increased in the region.

Keywords; Agro-industrial complex, livestock, innovation, export, import, industry.

Navoiy viloyati O'zbekistonning markaziy qismidan joylashib, tabiiy-iqlimiy sharoitlari, yer resurslari, sug'oriladigan maydonlar ulushi hamda yirik sanoat korxonalarining mavjudligi bilan ajralib turadi. Hududda qishloq xo'jaligi va sanoat sohatlari o'zaro uyg'un holda rivojlanib, agrosanoat majmuasining shakllanishi va modernizatsiyasi uchun keng imkoniyatlar yaratmoqda. So'nggi yillarda viloyatda agrotexnologiyalarni joriy etish, suvni tejash, issiqxonalar tarmog'ini kengaytirish, chorvachilikni intensivlashtirish va mahsulotlarni qayta b ishlash korxonalarini rivojlantirish bo'yicha sezilarli natijalar qayd etildi.

Viloyatda don, paxta, poliz, ekinlari bog'dorchilik, va uzumchilik yetakchi yo'nalishlar hisoblanadi. Qishloq xo'jaligi yerlarining katta qismi Zarafshon vodiysida joylashgani sababli sug'oriladigan maydonlarda samarali dehqonchilik yuritish mumkin. So'nggi yillarada:

-tomchilatib sug'orish tizimlari keng joriy etildi;

-sifatli urug'lik bazasi yaratildi;

-fermer xo'jaliklari yirik agroklasterlarga birlashtirilmoqda;

Hududda qoramolchilik, qo'ychilik, parrandachilik, asalarichilik barqaror rivojlanmoqda. Chorvachilik ulushi yil sayin oshib, go'sht-sut mahsulotlarining eksport salohiyati kengaymoqda. Zamonaviy yemish bazasining yaratilishi,

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

naslchilik xo'jaliklari, va veterinariya xizmatlarining kuchayishi bu sohaning yuksalishiga sabab bo'lmoqda.

Agrosanoatning asosiy bo'g'ini - qayta ishlash sektori so'nggi yillarda tez sur'atlarda o'sdi. Jumladan;

-meva va sabzavotlarni muzlatish, quritish va konservalash korxonalari;

- go'sht-sut mahsulotlarini qayta ishlash sexlari;

-paxta tozalash va to'qimachilik klasterlari muvaffaqiyatli faoliyat olib bormoqda.

Bu esa qishloq xo'jalik mahsulotlariga qo'shimcha qiymat qo'shib, eksport ulushini oshirmoqda.

Agrosanoat deganda qishloq xo'jaligi sohasida olib borilayotgan biznes tushuniladi va u bozor iqtisodiyotining tarkibiy qismlaridan birini tashkil etadi. Keng ma'noda qishloq xo'jaligi bilan bog'liq bo'lgan biznes turlari kiradi. **Agrosanoatning maqsadi** bozorni kerakli mahsulotlar bilan uzluksiz va to'la –to'kis ta'minlash orqali foyda ko'rishdan iborat. Agrosanoat ishtirokchilari - tadbirkor fermerlar, qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlash bilan shug'ullanuvchi sanoat tadbirkorlari, shu mahsulotni sotish bilan shug'ullanuvchi tijoratchilardir. Agrosanoat gullab-yashnashi uchun u amal qiluvchi sohalarga katta investitsiya sarflanadi, fan-texnika yutuqlari joriy etiladi. Agrosanoat MDH davlatlari kabi O'zbekistonda ham mavjud bo'lib u agrosanoat majmuasi asosida rivoj topadi.

Agrosanoatning birlamchi bo'g'ini- fermer va dehqon xo'jaliklari hisoblanadi va ularda qishloq xo'jalik mahsulotlari yaratiladi.

Navoiy viloyatining quruq iqlimi va yilning katta qismida quyoshli bo'lishi qator issiqxona xo'jaliklarini tashkil etish uchun qulay. Shuningdek

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

Zarafshon daryosi va **To'dako'l** suv ombori sug'orish manbai sifatida foydalaniladi.

Viloyatda transport tarmoqlarining rivojlanganligi agromahsulotlarni ichki va tashqi bozorlarga tez yetkazib berish imkonini yaratdi.

Navoiy viloyatida agrosanoat majmuasining izchil rivojlanishi iqtisodiyotning barqaror o'sishiga katta hissa qo'shmoqda. Sug'orma dehqonchilikni kengaytirish, klaster tizimini takomillashtirish, qayta ishlash sanoatini rivojlantirish va resurslardan samarali foydalanish kelgusida viloyatning agroiqtisodiy salohiyatini yanada oshirishga yordam beradi. Shuningdek, eksportbop logistika tizimini yaxshilash agrosanoatning barqaror rivojlanishida muhim omil mahsulotlar yetishtirish, suv tejovchi texnologiyalarni joriy etish va muhim omil bo'lib qoladi.

Navoiy viloyatidagi agrosanoatni rivojlantirishga to'sqinlik qilayotgan asosiy omillardan biri suv resurslarining cheklanganligidir. Suv tanqisligi butun Markaziy Osiyodagi dolzarb muammolardan hisoblanadi. Ayniqsa bu holat Navoiy viloyatida sezilarli darajada ko'zga tashlanadi. Chunki Navoiy viloyatining asosiy qismi cho'llardan tarkib topgan. Shu sababli ham suvni tejovchi texnologiyalarni kengaytirish zarur. Shunga qaramay, suv resurslariini samarali boshqarish, qayta ishlash infratuzilmasi va logistika- hali ham e'tibor talab qiladigan yo'nalishlar . Agar bu yo'nalishlarda izchil strategiyalar ishlab chiqilsa, Navoiy viloyatining agrosanoat salohiyati va eksport imkoniyatlari sezilarli darajada oshishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi. "Navoiy viloyati qishloq xo'jalik ko'rsatkichlari". Toshkent. 2024
2. To'xliyev. N. va boshqalar. "Agrosanoat majmuasi iqtisodiyoti". Toshkent. 2020

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

3. Jo'rayev. S." O'zbekiston qishloq xo'jaligi rivoji". Toshkent. 2021
4. O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi hisobotlari. "Agrosanoat modernizatsiyasi". Toshkent. 2021